

**Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
2025- yil yanvar-iyun**

	<i>Mlrd so'm</i>	<i>2024- yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot		
Sanoat mahsuloti		
Istemol tovarlari		
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari		
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar		
Qurilish ishlari		
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)		
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi.-km)		
Chakana savdo tovar aylanmasi		
Xizmatlar, jami	10 776,1	114,0
Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.) ¹⁾		
Eksport		
Import		
Saldo (+,-)		

V. XIZMATLAR



2025- yilning yanvar-iyun oylarida xizmatlarning umumiy hajmi 10 776,1 mlrd soʻmni tashkil qildi yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 14,0 % ga oʻsdi, shu jumladan savdo hamda ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlari 2 420,0 mlrd soʻmni (107,5 %), transport xizmatlari 1 246,8 mlrd soʻmni (112,5 %), boshqa xizmatlar 454,2 mlrd soʻmni (115,8 %) tashkil qildi.

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan koʻrsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni oʻz ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir.

Koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi maʼlum vaqt davomida isteʼmolchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qoʻshgan holda) koʻrsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi – 71,6 %



Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi - 6 976,6 ming soʻm



Xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlikning hajmi – 4 756,8 mlrd soʻm



Xizmatlar sohasining asosiy koʻrsatkichlari
(2025-yil yanvar-iyun)



Xizmatlar sohasi hajmining oʻsish surʼati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 114,0 %ni tashkil etdi.



**Bozor xizmatlari hajmi, o'sish darajasi va shahar, tumanlar
kesimida taqsimlanishi
2025- yil yanvar-iyun**

	<i>Hajmi, mlrd so'm*</i>	<i>2024- yil yanvar-iyuniga nisbatan % da</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da</i>
Jizzax viloyati	10 776,1	114,0	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax	3618,6	117,0	33,6
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	118,8	112,1	1,1
Baxmal	476,2	115,0	4,4
G'allaorol	550,2	114,0	5,1
Sharof Rashidov	857,6	112,6	8,0
Do'stlik	181,6	112,3	1,7
Zomin	520,7	113,5	4,8
Zarbdor	209,7	109,0	1,9
Zafarobod	106,9	110,0	1,0
Mirzacho'l	157,8	114,2	1,5
Paxtakor	236,1	114,0	2,2
Forish	303,3	117,0	2,8
Yangiobod	47,7	126,2	0,4

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.*

Jami xizmatlar ko'rsatkichi tahlil qilinganida, yuqori o'sish sur'atlari Yangiobod (126,2 %), Forish (117,0 %), Jizzax sh (117,0 %) va Baxmal (115,0 %) tumanlarida qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan
(ko‘rsatilgan) bozor xizmatlarining hajmi**


	<i>Miqdori, (mlrd so‘m)</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan % da</i>
Xizmatlar – jami	10 776,1	114,0	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	491,2	132,2	4,5
moliyaviy xizmatlar	1 941,0	128,2	18,0
transport xizmatlari	1 246,8	112,5	11,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 205,0	110,3	11,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	2 853,1	110,3	26,5
savdo xizmatlari	2 420,0	107,5	22,5
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	156,2	118,1	1,4
ta‘lim sohasidagi xizmatlar	307,9	98,6	2,9
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	220,7	116,2	2,0
ijara xizmatlari	115,3	116,5	1,1
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	218,5	111,4	2,0
shaxsiy xizmatlar	243,9	110,2	2,3
me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	107,2	125,9	1,0
boshqa xizmatlar	454,3	115,8	4,2

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni yashash va ovqatlanish xizmatlari (26,5 %), savdo xizmatlari (22,5 %), moliyaviy xizmatlar (18,0 %) hamda transport xizmatlari (11,2 %) tashkil etdi.


Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,0 %), ijara xizmatlari (1,1 %) hamda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (1,4 %) egalladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibining o'sish sur'atlari, % da
2025- yil yanvar-iyun oylari

■ 2023-yil yanvar-iyun
 ■ 2024-yil yanvar-iyun
 ■ 2025-yil yanvar-iyun




Xizmatlar tarkibida korxonalarining toifalari bo'yicha ulushlarining o'zgarish dinamikasi, % da



Bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari eng yuqori ulushni (22,5 %) tashkil etdi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida chakana savdo (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi – 53,8 %, avtomobil ulgurji va chakana savdo xizmatlari 31,7 % va ulgurji savdo xizmatlari 14,5 %ni tashkil etdi.



Savdo xizmatlari hajmi, o‘shish darajasi va shahar, tumanlar kesimida taqsimlanishi
2025- yil yanvar-iyun


	<i>Hajmi, mlrd so‘m*</i>	<i>2024- yil yanvar-iyuniga nisbatan o‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da</i>
Jizzax viloyati	2 420,0	107,5	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax	867,5	100,9	35,8
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	41,0	100,6	1,7
Baxmal	177,0	111,4	7,3
G‘allaorol	247,7	106,6	10,2
Sharof Rashidov	227,7	110,0	9,4
Do‘stlik	71,3	124,1	2,9
Zomin	171,2	111,4	7,1
Zarbdor	80,5	107,4	3,3
Mirzacho‘l	58,5	119,1	2,4
Zafarobod	39,7	105,9	1,6
Paxtakor	84,1	109,9	3,5
Forish	110,7	116,4	4,6
Yangiobod	20,4	119,7	0,8

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.

Savdo xizmatlari tahlil qilinganida, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Do‘stlik (124,1%), Yangiobod (119,7%), Mirzacho‘l (119,1%), Forish (116,4%) tumanlarida kuzatildi.


Yuqori bo‘lmagan o‘shish sur‘atlari esa, Arnasoy tumani (100,6%) va Jizzax shahrida (100,9%) qayd etildi.

Savdo xizmatlarining umumiy hajmida hududlar ulushi, % da
2025- yil yanvar-iyun



Savdo xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar Jizzax shahri (38,5 %), G'allaorol (10,2 %), Sharof Rashidov (9,4 %), Baxmal (7,3 %), Zomin (7,1 %) va Forish (4,6 %) tumanlari bo'ldi.

Transport xizmatlarining tarkibi, % da
2025- yil yanvar-iyun



Xizmatlar tarkibida savdo va moliya xizmatlaridan keyin transport xizmatlari ulushi 11,6 %) yuqoriligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar hajmi oshishining asosiy omillari – bu yangi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transportining ulushi 96,7 % bilan asosiy ustunlikka ega.


**Transport xizmatlari hajmi, o‘shish sur‘ati va
hududlar kesimida taqsimlanishi**
2025- yil yanvar-iyun

	<i>Hajmi, mlrd so‘mda*</i>	<i>2024- yil yanvar-iyuniga nisbatan o‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da</i>
Jizzax viloyati	1 246,8	112,5	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax sh.	264,0	111,6	21,2
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	8,0	115,4	0,6
Baxmal	145,9	113,8	11,7
G‘allaorol	79,6	117,2	6,4
Sharof Rashidov	307,3	110,7	24,6
Do‘stlik	37,3	106,7	3,0
Zomin	93,5	110,1	7,5
Zarbdor	36,9	108,9	3,0
Mirzacho‘l	10,9	108,1	0,9
Zafarobod	8,0	106,0	0,6
Paxtakor	30,9	118,1	2,5
Forish	89,5	115,6	7,2
Yangiobod	6,0	106,6	0,5

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.*

Tumanlar o‘rtasida transport xizmatlari bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Paxtakor (118,1 %), G‘allaorol (117,2 %), Forish (115,6 %) va Arnasoy (115,4%) tumanlarida qayd etildi.

**Transport xizmatlarining umumiy hajmida
hududlarning ulushi, % da
2025- yil yanvar-iyun**




Transport xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega hududlar sifatida Sharof Rashidov (24,6 %), Jizzax shahri (21,2 %), Baxmal (11,7 %), Zomin (7,5 %) va Forish (7,2 %) tumanlari qayd etildi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi insonning zamonaviy turmush tarziga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Yildan-yilga odamlar internet va mobil telefonlardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Zamonaviy biznesni rivojlantirishda axborot va xizmatlardan real vaqtda masofaviy erkin foydalanish huquqi muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda Jizzax viloyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) davlat boshqaruvi tizimida, iqtisodiyotning tarmoqlarida, ijtimoiy soha va odamlarning kundalik hayotida joriy etishni izchil amalga oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.


2025- yilning yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyati bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 491,2 mlrd so'mga teng bo'ldi. 2024- yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishi 132,2 % ni tashkil etdi.

Jizzax viloyatida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o‘shish sur‘atlari, % da



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (57,1 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet, yo‘ldosh aloqa xizmatlari va h.k.) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, % da 2025- yil yanvar-iyun




Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.


Pul-kredit tizimini isloh qilish dasturida bank tizimini barqarorligini ta'minlash, xalqaro standartlarga muvofiq bank faoliyatini yanada takomillashtirish, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, bank va sug'urta tashkilotlariga ko'rsatiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Natijada, 2025- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi 1 941,0 mlrd so'mga yetdi va o'sish sur'ati 128,2 % ni tashkil qildi.

Jizzax viloyatida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari dinamikasi, % da



Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da
2025- yil yanvar-iyun



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, shuningdek, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish (kredit berish va depozit hisob raqamlarni ochish bo'yicha elektron xizmatlar ko'rsatish) borasida amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmining oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi (95,2 %) ustunlik qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta xizmatlarining ulushi 4,1 % ni, yordamchi moliyaviy faoliyat 0,7 % ni tashkil etdi.

Bozor xizmatlarining hajmi, o‘shish sur‘ati va aholi jon boshiga hududlar kesimidagi holati

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd so‘m*	2024- yil yanvar-iyuniga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so‘m	2024- yil yanvar-iyuniga nisbatan % da
Jizzax viloyati	10 776,1	114,0	100.0	6 976,6	111,8
<i>shahar:</i>					
Jizzax	3 618,6	117,0	33,6	18 020,8	114,7
<i>tumanlar:</i>					
Arnasoy	118,8	112,1	1,1	2 396,0	110,5
Baxmal	476,2	115,0	4,4	2 719,6	112,6
G‘allaorol	550,2	114,0	5,1	2 873,0	111,8
Sharof Rashidov	857,6	112,6	8,0	3 426,4	109,9
Do‘stlik	181,6	112,3	1,7	2 553,5	110,9
Zomin	520,7	113,5	4,8	2 814,5	110,8
Zarbdor	209,7	109,0	1,9	2 164,4	107,0
Mirzacho‘l	106,9	110,0	1,0	2 793,4	112,4
Zafarobod	157,8	114,2	1,5	1 953,8	108,4
Paxtakor	236,1	114,0	2,2	2 855,0	112,1
Forish	303,3	117,0	2,8	3 029,7	115,4
Yangiobod	47,7	126,2	0,4	1 573,8	124,5

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda

Xizmatlar sohasining rivojlanishida eng katta ulush Jizzax shahri (33,6 %), Sharof Rashidov (8,0 %) va G‘allaorol (5,1 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


Jizzax viloyati bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da
2025- yil yanvar-iyun



Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng kichik ulushlarni Yangiobod (0,4 %), Mirzacho'l (1,0 %) va Arnasoy (1,1 %) tumanlari qayd etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (18 020,8 ming so'm) bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,7 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar bo'yicha hajmi va o'sish sur'ati, % da
2025- yil yanvar-iyun



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Yangiobod (1 573,8 ming so'm), Zafarobod (1 953,8 ming so'm) va Zarbdor (2 164,4 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.


**Yashash va ovqatlanish bo'yicha
xizmatlarning hajmi va o'sish sur'ati, % da
2025- yil yanvar-iyun**



2024-yilning mos davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 110,3 % ni tashkil qildi, hajmi esa 503,5 mlrd so'mga ko'payib, 2 853,1 mlrd so'mga yetdi.


Ushbu turdagi xizmatlar o'sish sur'atlarining ko'payishida dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi ko'payganligi sezilarli ta'sir etganligini qayd etish lozim.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da
2025- yil yanvar-iyun



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmining asosiy qismini oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi (94,7 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'atlari
2025- yil yanvar-iyun



Qayd etish joizki, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi G'allaorol tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 % ga kamaydi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar jami xizmatlar hajmining 2,9 % ni tashkil etib, hajmi 307,9 mlrd so'm, ya'ni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 % ga kamaydi. Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda Arnasoy tumanida 16,4 % ga o'sib, bu sohada yetakchilik qilmoqda.

2025- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha ta'lim sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati, % da





Xizmatlar ko'rsatishning mazkur sohasida yuqori o'sish sur'atlari Arnasoy (116,9%), Baxmal (111,9 %), Sharof Rashidov (111,1 %) va Forish (108,6 %) tumanlarida kuzatildi.

2025-yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi jami 220,7 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,2 % ga o'sdi va jami xizmatlardagi ulushi 2,0 %ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, eng yuqori o'sish sur'ati Zomin (128,7 %), Arnasoy (125,0 %) va Sharof Rashidov (122,6 %) tumanlarida kuzatildi.

2025- yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning hududlar bo'yicha o'sish sur'atlari, % da



2025-yil yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi 220,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi 2,0 % ni tashkil etdi.

2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,2 %ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun:

2024- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmatlar hajmi 163,9 mlrd so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining 1,9 %ini tashkil etgan.

Sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan xizmatlar G'allaorol (108,4 %) va Zafarobod (108,4%) tumanlari nisbatan past o'sish sur'atiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.